

ASADULLA HABIBNING “ULKAN G‘AMNING INTIHOSI” HIKOYASI OBRAZLAR TIZIMI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi 2-kurs magistranti
Shodmonova Zulayxo Buri qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg'oniston zamonaviy dariyzabon yozuvchisi Asadullo Habibning "Ulkan g'amning intihosi" hikoyasi tahlilga tortilgan. Hikoyadabadiy tasvir, ramz va asarning o'ziga xos xususiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Asadullo Habib, badiiy tasvir, ramz, g'am, ezbilik, yovuzlik

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ современного афганского писателя Асадуллы Хабиба «Конец великой скорби». Выделены художественный образ в рассказе, символ и неповторимая особенность произведения.

Ключевые слова: Асадулло Хабиб, художественный образ, символ, добро, зло

Hozirgi zamon zamonaviy dariyzabon hikoyanavisligi o'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab rivojlangan. Shu davrda bir qancha taniqli afg'on yozuvchilar, jumladan, Asadulla Habib, Akram Usmon, Maryam Mahbub, Spujmay Zaryob, Rahnavard Zaryoblar yetishib chiqqan. Bu yozuvchilarining ko'pchiligi hikoya janrida ijod qilganlar. Mamlakatda davr talabi bilan qator iste'dodli adiblar, nasrnasivlar yetishib chiqdilar va bu adiblarning ilg'or, taniqli vakillaridan biri Asadullo Habibdir.

Asadullo Habib 1942-yilda Afg'onistonning Kobul shahrida dunyoga kelgan. Asadulloning yoshlik va o'spirinlik yillari qiyinchilik bilan kechdi. Uning otasi kichik xizmatchi bo'lib, topgani ro'zg'or tebratishga yetib-yetmas, ba'zan Kobul kinoteatrlaridan birida bilet sotuvchi bo'lib ishlaydigan akasi yordamiga ham muhtoj bo'lib qolar edi.²⁴ Bo'lajak yozuvchi Kobuldag'i O'qituvchilar bilim yurti ("Dor ul-muallimin")da tahsil oladi. Ko'plab ijodkorlar singari Asadullo Habibda ham adabiyotga qiziqish bolalik yillarda boshlanadi va uning ba'zi she'rlari jurnallarda bosilib chiqa boshlaydi. Asadulla Habib zamonasining yetuk, ilmi olimi bo'libgina qolmay, hikoya, povest, she'rlar yozgan va bu orqali ko'pchilikka tanish bo'lgan. Uning "Oydin" povesti, "Uch xizmatkor", "Qora ot", "So'nggi orzu" kabi hikoyalar

²⁴ Rahmon Inomxo'jayev. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti II (XIX asr oxiri-XX asr). – Toshkent. 2018. –B. 136



to'plami nafaqat Afg'onistonda, balki dunyoning boshqa davlatlarida ham chop etilib, kitobxonlarga yetib borgan.

1978-yilda Afg'onistonda yuz bergan savr voqealari mamlakat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Tuzum o'zgarishidan katta umid qilgan ko'plab insonlar orasida Asadulla Habib ham bor edi. U inqilob hayot tarzini ijobiy tarafga o'zgartiradi deya umid qilgan va shunga bag'ishlab bir qancha asarlar ham yaratgan. Uning "ulkan g'amning intihosi" hikoyasi ayni shu mavzu haqidadir. Asadulla Habibning asarlarini inqilobdan oldin va inqilobdan keyin yozilganligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning g'oyaviy jihatdan ikki xil mazmunda yozilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. 1978-yildan oldin yozilgan birinchi guruh hikoyalardan yozuvchi oddiy xalq ommasi hayotiga ko'proq e'tibor qaratadi. Ezilgan, bechora insonlarni o'z hikoyalari orqali ko'rsatib beradi. Ikkinci guruhga kiruvchi asarlarda xursandchilik, kelajakka umid, yaxshi kunlarning boshlanishiga ishonch mazmunida yozilgan hikoyalarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Ulkan g'amning intihosi", "Tog'lardagi sadolar", "So'nggi orzu" kabi hikoyalari orqali inqilob olib keladigan yorug' kelajakni ifodalamoqchi bo'ladi.

"Ulkan g'amning intihosi" hikoyasida bir qarashda oddiy, kambag'al oiladan chiqqan bolaning qayg'usi ifodalangandek bo'lsada, aslida jamiyatda urchib ketgan qusurlar kosa tagida nimkosa shaklida aytib o'tiladi. Husayndod 14 yoshli bola. Oilasi bilan hayot kechirish uchun Muhammadamin ismli dorifurushning garajida yashashga va oilaning mayda-chuyda yumushlarini bajarishga majbur bo'ladi. Qo'shni uyda yashovchi elchining bolasi uning asosiy dushmani va katta qayg'usiga aylanadi. Husayndod bechorahol, kuchsiz, kambag'al. Uning orqasidan qo'llab turuvchi, yiqlisa o'rnidan turg'azib qo'yuvchi kishisi yo'q. Unga faqatgina qari bobosi, kasalmand onasi va mahallaning besh-oltita o'ziga o'xshagan bolalari hamroh xolos. Elchining o'g'li obrazi esa boy, har ne istasa muhayyo, yonidagi o'rtoqlari ham o'ziga o'xshagan boy xonadonning farzandlari. Xattoki, miliitsiya ham u tarafda. Yosh jihatdan teng, lekin ijtimoiy kelib chiqish tarafidan turlicha bo'lgan ikki bolaning bir-biriga qarama qarshi qo'yilishi jamiyatdagi tabaqalashtirish, oddiy xalqning ezilishi va boylarning oshig'i olchi ekanini ko'rsatib beradi. Jamiyat shu darajada tubanlashib ketganki, odam ajratish, boylarning kambag'allarga nisbatan zo'ravonligi yosh bolalarning ham hayotida ko'rindi. Husayndodning bobosi Karbaloyi Rajab keksa, mehribon, chorasziz bo'lsada, ko'pni ko'rgan, bir qancha siyosiy kitoblarni yashirinchcha o'qib yuradigan, jamiyatda, hokimiyatda yuz berayotgan voqealarga befarq emas. Yoshligida ko'rgan qiyinchiliklari, butun umr chekkan azoblarini ichiga yutib kelgan. Husayndod elchining o'glidan qasd olishga ahd qilgan kuni tuni bilan shaharda tartibsizliklar bo'ladi. Bobo kelganidan keyin



nabirasiga o'tmishini aytib beradi va endi buyog'iga yaxshi kunlar kelishini yelkasida ulkan g'am bilan yashab kelganini aytadi. Bu obraz ham yillar davomida ezilgan xalqning aksidir. Bir kechada sodir bo'lgan shahardagi tartibsizliklar, otishma, portlashlar va ertasi kuni boboning labida tabassum bilan uya kirib kelishi 1978-yil aprelida yuz bergan voqealardir. "Sen, o'g'lim, yodingda bo'lsin, yaqinda shunday kun keladiki, kishi kishiga xizmatkorlik qilmaydi. Kishi kishiga zulm o'tkazmaydi,-u bu gaplarni ishonch bilan gapirdi."²⁵ Yuqorida keltirilgan misoldan ham Karbaloyi Rajabning inqilobdan qanchalik umid qilayotganligining ifodasidir. Hikoyadagi salbiy obraz hisoblan mish Hojining xotini zulmkor, boylarga laganbardorlik qilib, xizmatkorlarini ezadigan ayol. Uning Husayndod bilan elchining o'g'li o'rta sidagi janjalni eshitib, ularni ko'chaga haydagan sahnasi ham uning qanday inson ekanligi aks ettiradi. "Axir elchining o'g'li bo'lsa. Podsho xonadonidan! Biz podshoni o'z ko'zimiz bilan ko'rganmiz, Hojining uyiga kelayotganida... Biz hammamiz uning qullari va quvachchalarimiz.-Bu so'zlarni o'z g'azabining ifodasi sifatida qo'pol qarg'ishlar bilan pardozlab Husayndodning gunohini benihoya daxshatli va kechirib bo'lmaydigan darajada ulkan qilib ko'rsatishga urinardi". Vaziyatni bo'rttirib ko'rsatib bechora oilani ko'chaga haydash bu ayol uchun oddiy hol. Ularning buyog'iga nima qilishi, qayerga borishi bilan esa umuman ishi yo'q. Bu orqali yozuvchi yuqori tabaqa vakillarining razilligini, o'z manfaatlari yo'lida hech narsadan tap tortmasliklarini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

²⁵ Asadulla Habib. Oydin: Qissa va hikoyalar. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.-Toshkent- 1982. -B
176

